

ONA TILI “FONETIKA” BO’LIMINI O’QITISHDA TA’LIMIY O’YINLARDAN  
FOYDALANISH

Charosxon Abdurasulova, Muhayyo Bozorova

*Farg'ona viloyati Rishton tumani*

*14-umumita'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ona tili darslarida fonetika bo'lmini o'qitishda ta'limiylar o'yinlardan foydalanish haqida fikr-mulohazalar keltirildi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, Fonetika, darslik, qizil kartochka, Svetafor, tovush*

**Аннотация:** В данной статье представлены отзывы об использовании обучающих игр при обучении фонетике на уроках родного языка.

**Ключевые слова:** образование, фонетика, учебник, красная карточка, светофор, звук.

**Abstract:** This article provides feedback on the use of educational games in teaching phonetics in mother tongue classes.

**Key words:** education, phonetics, textbook, red card, traffic light, sound

Biz texnika va texnologiyalar bilan hayotimiz osonlashgan bir davrda yashayapmiz. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limga sohasida ham bir qator innovasion g'oyalar ta'limga sifatini ko'tarishga safarbar etildi. Yangi darsliklar, ko'rgazma va ko'rsatmali vositalar, elektron kitoblar barchasi yangi davr kishisini shakllantirish va rivojlantirishga qaratildi.

Ayniqsa ona tili fanini umumiyligiga o'rta ta'limga maktabalarida o'qitilishiga e'tibor kuchaydi.

Ona tilini o'qitishda darslikdagi ma'lumotlarin berish bilangina cheklanish ta'limga sifatini ta'minlab bermay qoldi. Shuning uchun bugungi zamondagi pedagogi turli xil o'qitish usullari orqali o'quvchini mavzuga jallb etishi va DTSdan ko'zlangan maqsadga etishi lozim. Ayniqsa 5-sinfda ona tili fanidan Fonetika va Leksikologiya bo'limlarini o'qitishda biroz murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Shunda pedagog an'anaviy ta'limga metodlaridan chiqqib, noan'anaviy yo'sinda saboqlarni tashkil etishi samarali natija beradi.

Masalan,

“Svetafor” ta'limiyligiga o'yini.

Bu o'yinda “Fonetika” bo'limi yuzasidan o'tilganlarni takrorlash darvlarida keng foydalaniladi. O'yinga uch xil, ya'ni svetafor rangidagi kartochkalar hamda savollar uchun mashinalarning aplekasiyasidan foydalanish mumkin. Buning uchun rangli kartochkalar o'quvchilarga tarqatiladi.o'qituvchi savollar yozilgan ko'rgazmani doskaga iladi.

Sinf guruhlarga ajratiladi. Guruh a'zolari tartib bilan savollarga javob beradi. Javobni to'g'ri deb hisoblagan o'quvchilar yashil, noto'g'ri deb hisoblaganlar qizil, savolga javob topa olmagan o'quvchilar sariq krtochkani ko'taradilar. Har uchchala guruhg'a 3 tadan 5 tagacha savol berish mumkin. Har bir sariq kartochkaga bir ball ayirib olinadi. Qizil kartochkada noto'g'ri deb topilgan savolning aniq javobi uchun bir ball qo'yiladi, noto'g'ri javob uchun yarim ball ayirib qolinadi.

Masalan 1-guruhda 30 ball, 2-guruhda 30 ball, 3-guruhda 30 ball bo'lib, birinchi guruh 5 ta sariq kartochka yig'sa, 25 ball qoladi.

Qizil kartochka ko'targanlar javobning nima uchun noto'g'riliгини izohlab beradilar. Izohlab bera olmasalar yarim ball kamayadi.

O'yin oxirida eng faol qatnashgan guruh taqdirlanadi.

O'qituvchi o'yin uchun savolni darslikdan kelib chiqqan va bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzishi shart.

Yosh tadqiqotchi ta'limi o'yini. Bu o'yin interfoal usullar asosida tashkil etilib, yangi mavzuni tushuntirishda foydalanish mumkin. Buning uchun sinf ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruh "Unli tovush", ikkinchi guruh "Undosh tovush" deb nomlanishi mumkin. Har bir dars uchun gurhlarning nomi va sardori o'zgarishi o'quvchilarda liderlikka intilishini ta'minlaydi. Har ikki guruhga alohida topshiriq beriladi. Masalan undosh tovushlarning ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra turlari yuzasidan birinchi guruh "Jarangli undoshlar va ularning o'ziga xos jihatlari", ikkinchi guruh uchun "Jarangsiz undoshlarning o'ziga xos jihatlari" mavzusida ma'ruza tayyorlaydi. Buning uchun 2-3 minut vaqt ajratiladi. Ma'ruzani tayyorlashda darslik va darslikdan tashqari materialldadan foydalanishga pedagog yordam berishi mumkin. Guruh a'zolari ichidan bitta asosiy, bitta qo'shimcha ma'ruzachi tayinlanadi.

Bu ma'ruzachilar guruhga berilgan topshiriq bo'yicha darsni bayon qiladilar. Asosiy ma'ruzachi yo'l qo'yan kamchilikni qo'shimcha ma'ruzachi to'ldiradi. Raqib guruh savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Keyin ikkinchi guruh ma'ruza qiladi, birinchi guruh savollar beradi. O'yin shu tarzda davom etadi. O'qituvchi bu o'yinni boshqaradi. Agar ma'ruzachilar kamchilikka yo'l qo'ysalar, o'qituvchi ularni to'ldiradi.

Bu o'yindan ko'zlangan maqsad shuki, bunda o'quvchilar ilmiy ma'lumotlarni topish, tahlil qilishida kitobdan foydalanish kompetensiyalariga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari "Unli tovushlarda lablarning ishtiroki", "Undoshlarning hosib bo'lishiga ko'ra farqlanishi", "Undoshlarning hosil bo'lish o'rni", "Bo'g'lnlarda unli va undoshlar" va h.k. muammolar bo'yicha "Blis" so'rovni o'tkazish mumkin. Bu usul o'quvchilarni dars jarayonida matn bilan ishlashlariga, o'tilgan mavzuni mustahkamlashlariga va yodda saqlab qolishlariga, bilmaganlarini bilib olishlariga, bilganlarini esa qaytarib mustahkamlashlariga, eng asosiysi, o'zlashtirish darajalarini aniqlashi, shu bilan birga butun jamoani baholashda qo'l keladi.

"Davom ettir" ta'limi o'yini orqali o'quvchilar "Fonetika" bo'limidagi bo'g'lnlarni o'rganishga qartilgan saboqlarda, "Leksikologiya" va "Sintaksis" bo'limlarida qo'llanilsa yaxshi samara beradi.

Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ochiq bo'g'ilari yoki yopiq bo'g'lnlarni beradi. O'quvchilar berilgan bo'g'inga mos bo'g'in qo'shib, so'z hosil qiladilar.

Bo-, bo'-, ji-, no-, sa-, gi-, za-, bi- va h.k.

Bunda o'quvchilar bobo, bola, Bosit, Boqi, Botir, boxabar, bokira singari so'zlarni belgilashlari mumkin.

Tan-, bek-, tir-, mak-, hukm- va h.k.

Tanbeh, tandir, tansiq, tantana, tanga, tanbal kabi so'zlarni keltirish mumkin.

O'qituvchi hosil qilingan so'zlarni havola etilayotganda birinchi guruh aytgan so'z boshqa guruh tomonidan takrorlanmasligiga e'tibor berishi va bolalarni ham shunga yo'naltirishi kerak. Ana shundagina o'quvchilar darsda e'tiborli, boshqalar fikrini hurmat qiladigan, hamda o'zlariga berilgan topshiriqda o'ziga xoslikka erishishga intiladigan bo'ladilar. Eng asosiysi

o'quvchilar bo'g'inni davom ettirishda xotira puchmoqlarida mavjud lug'at boyligiga murojaat qiladi va nutqini ana shu so'zlar bilan boyishiga ejrishiladi.

Xulosa qilib aytganda har qanday pedagogik texnologiyalarni dars mavzusiga va o'quvchilar moslab qo'llay olish o'qituvchiga bog'liq. Bu esa o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Abdullayeva M." Ona till o'qitish metodikasi" .T- 2017
- 2.Muhamedova S."Tillarni o'qitishda pedagogik texnologiyadan.T-2015